



# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## 2020-yilning yanvar-fevral oylarida Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2020-yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan 779,2 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 104,6 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 2,3% ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat 90,0% ga, elektr, gaz, bug` bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 6,9% ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,chiqindilarni utilizatsiya qilish 0,8% ga o'sishi hisoblanadi.

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



**Tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash**

hajmi 17,5 mlrd.so`m

ulushi 2,3 foiz

**Ishlab chiqaradigan sanoat**



hajmi 701,1 mlrd.so`m

ulushi 90,0 foiz

hajmi 54,0 mlrd.so`m

ulushi 6,9 foiz

hajmi 6,6 mlrd.so`m

ulushi 0,8 foiz



**Elektr, gaz, bug` bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish**



## 2020-yilning yanvar-fevral oylarida Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi bo`yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari

Tog`- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 17,5 mlrd. so`mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,3 % ni tashkil etdi.




### Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2020-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 701,1 mlrd. so`mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 90,0 % ni tashkil etdi.

O`z navbatida sanoatning mazkur tarmog`ida eng yuqori ulush to`qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda 35,0 % kuzatildi. Shuningdek oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 15,6 %ni, boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 11,7 %ni, kiyim ishlab chiqarish 6,5 %ni tashkil etganligini ko`rishimiz mumkin.

### Yillar kesimida sanoatning ishlab chiqarish hajmi, mlrd so`mda





# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2020-yil yanvar-fevral oyida	Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari	O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda
13096,0	Paxta chigiti, t.	66,9
3343,0	Paxtadan yigirilgan ip, t.	169,7
9189,0	Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	93,1
585,0	O'simlik yog'i (tozalangan), t	33,5



# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2020-yil yanvar-fevral oyida	Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari	O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda
8099,0	Paxta tolasi, t.	67,4
111,1	Porshenli dvigatellarni ishga tushirish uchun qo`rg`oshinli akkumulyatorlar, ming dona	89,5
356,0	Mashinada yoki qo`lda to`qilgan trikotaj polotnolar, t.	129,0
758,0	Paxta linti, t.	70,9

## Elektr, gaz, bug` bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash


2020-yilning yanvar-fevral oylarida elektr, gaz, bug` bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 54,0 mlrd.so`mni(jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,9 %ni ) tashkil etdi. Shu bilan birga fizik hajmi indeksi 144,4 % ni tashkil etdi.



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6,6 mlrd.so`mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8%ini) tashkil etdi.


2020-yilning yanvar-fevral oylarida chiqindilarni yig`ish, ishlov berish, yo`qotish, utilizatsiya qilish hajmi jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 0,4 % ni, suv yig`ish, qayta ishlash va taqsimlash esa 0,4 % ni tashkil etdi.





# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


## Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo`yicha ishlab chiqaradigan sanoat hajmi, mlrd.so`m





# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo`yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da







# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Jizzax viloyati bo'yicha 2020-yilning yanvar-fevral oylarida amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 799,2 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi 104,6% ni tashkil etdi.

## 2020-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



## 2020-yilning yanvar-fevral oyida ishlab chiqarish indeksi, % da




○ ishlab chiqarish indeksi, foizda



Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining ortishi natijasida jami sanoatda hududlarning ulushi sezilarli oʻshmoqda. Bunda eng yuqori ulush Jizzax shahrida (48,0 %) kuzatildi. Shu bilan birgalikda, Doʻstlik (14,6%), Paxtakor (5,3%), Sh.Rashidov (5,5%) va Zomin (5,4 %), tumanlarida ham nisbatan yuqori ulushni koʻrish mumkin.

## 2020-yilning yanvar-fevral oylarida sanoat ishlab chiqarishda hududlarning oʻrni, % da







# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## Iste`mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo`llab-quvvatlash bo`yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste`mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 277,3 mlrd. so`mni tashkil etdi va 2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 93,6 % ni, jami sanoatdagi ulushi esa 35,6 % ni tashkil etdi.




**2019-yilning yanvar-fevral oyida iste`mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlarining ulushi 72,1%dan 2020-yilning yanvar oyida 75,3 %ga ko`paygan.**



Amaldagi narxlarda aholi jon boshiga jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 569,9 ming so`mni tashkil etdi. Jumladan, Jizzax shahrida 2123,7 ming so`mni, Do`stlik tumanida 1757,8 ming so`mni, Paxtakor tumanida 566,3 ming so`mni, Arnasoy tumanida 698,7 ming so`mni tashkil etdi.


## 2020-yilning yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste`mol tovarlari, ming so`m




Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning 1-mart holatiga sanoat tarmog'ida faoliyat yuritayotgan 101 ta xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan 182,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 23,4% ni tashkil etdi.

## Horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd. so'mda




## Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi sanoat korxonalarining umumiy sanoat hajmidagi ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik sub`yektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida 460,8 mlrd. so`mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo`lib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 59,1 % ni tashkil etdi.

## Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissi, % da




## Iste'mol mollarida kichik biznesning hissi, % da




## Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari

Viloyatda 2020-yil 1-mart holatiga 2851 ta sanoat korxonalari faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, ulardan 967 tasi Jizzax shahrida, 620 tasi Sharof Rashidov, 253 tasi G`allaorol, 259 tasi Zomin, 226 tasi Forish, 110 tasi Zarbdor, 104 tasi Paxtakor, 101 tasi Do`stlik, 85 tasi Baxmal, 79 tasi Mirzacho`l, 83 tasi Zafarobod, 56 tasi Arnasoy va 44 tasi Yangiobod tumanlarida joylashgan.

### 2020-yil 1-mart holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlikda



## 2020-yil 1-mart holatiga yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda



Sanoat statistikasi bo'limi  
telefon: (71) 230-83-47